



PROBLEMS OF THEORETICAL STUDY OF COMPOUND SENTENCES

Nasirov Diyorbek Azamat o'g'li

Student of Samarkand State Institute of Foreign Languagesnasirov7780@gmail.com**Abstract:**

This article examines the complex and akmyal issues of compound sentence theory in modern Uzbek linguistics from a systemic perspective. In particular, the concept of the "compound sentence" is reconsidered, and the necessity of interpreting it as a "complex syntactic construction" is substantiated. The study analyzes the relative independence of components, their nature as a set of predicative units, and the phenomenon of super-predicativity. Special attention is paid to semantic-syntactic asymmetry, the notion of proposition, and the principles of redundancy and economy in language. The findings highlight the importance of analyzing such structures not only formally but also at semantic and textual levels.

Keywords: *Keywords: compound sentence, complex syntactic construction, predicativity, super-predicativity, proposition, semantic-syntactic asymmetry, language economy, syntax.*

QO'SHMA GAPLARNI NAZARIY O'RGANISHDAGI MUAMMOLAR

Nasirov Diyorbek Azamat o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasinasirov7780@gmail.com**Annotatsiya:**

Mazkur maqolada hozirgi o'zbek tilshunosligida qo'shma gaplar nazariyasining dolzarb va murakkab masalalari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Xususan, "qo'shma gap" terminining mohiyati qayta ko'rib chiqilib, uni "murakkab sintaktik qurilma" sifatida talqin etish zaruriyati asoslab beriladi. Tadqiqotda qo'shma gap tarkibidagi komponentlarning nisbiy mustaqilligi, ularning predikativ birliklar majmuasi sifatidagi xususiyatlari hamda ustpredikativlik hodisasi ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, semantik-sintaktik nomuvofiqlik, propozitsiya tushunchasi, tilning ortiqchalik va tejash tamoyillari asosida murakkab mazmunning sodda shaklda ifodalanishi masalalari tahlil qilinadi. Natijada qo'shma gaplarni faqat shakliy emas, balki semantik va matniy darajada o'rganish zarurligi asoslanadi.

Kirish so'zlar: *qo'shma gap, murakkab sintaktik qurilma, predikativlik, ustpredikativlik, propozitsiya, semantik-sintaktik nomuvofiqlik, til tejamkorligi, sintaksis.*





ПРОБЛЕМЫ ТЕОРЕТИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

Насиров Диёрбек Азамат ўгли

Студентка Самаркандского государственного института

иностранных языков

nasirov7780@gmail.com

Абстрактный:

В данной статье анализируются актуальные и сложные проблемы теории сложного предложения в современном узбекском языкознании с позиций системного подхода. В частности, пересматривается сущность термина «сложное предложение» и обосновывается необходимость его интерпретации как «сложной синтаксической конструкции». В работе рассматриваются вопросы относительной самостоятельности компонентов, их характеристика как совокупности предикативных единиц, а также феномен сверхпредикативности. Особое внимание уделяется семантико-синтаксической асимметрии, понятию пропозиции и принципам избыточности и экономии языковых средств. В результате обосновывается необходимость изучения сложных конструкций не только на формальном, но и на семантическом и текстовом уровнях.

Ключевые слова: сложное предложение, сложная синтаксическая конструкция, предикативность, сверхпредикативность, пропозиция, семантико-синтаксическая асимметрия, языковая экономия, синтаксис.

Hozirgi o'zbek tilshunosligida qo'shma gaplar tabiatini yoritish masalasi eng murakkab va ziddiyatli muammolardan biri bo'lib qolmoqda. An'anaviy grammatikada "qo'shma gap" termini ostida ikki va undan ortiq sodda gapning birikishi tushunilsa-da, tizimli tilshunoslik bu hodisaga lisoniy ierarxiya nuqtai nazaridan yondashishni talab etadi. "Bizningcha, qo'shma gap termini o'rniga murakkab sintaktik qurilma terminining qo'llanilishi har tomonlama ma'quldir. Chunki qo'shma gap tushunchasi til birliklarining ierarxik munosabatlarini taqozo etuvchi sistema qonuniyatiga putur yetkazadi. Boshqacha aytganda, an'anaviy qarashga ko'ra, gap ikkinchi bir gapning ichida funksional faollik oladi degan g'aliz xulosa kelib chiqadi. Vaholanki, gap gapning ichida emas, balki bevosita matn sathida o'z faolligini namoyon etadi. Shu bois lisoniy ierarxiya tamoyillarini saqlash uchun mazkur birliklarni murakkab qurilmalar sifatida baholash lozim".⁴⁸ Bizning tushunishimizcha, muallif bu yerda an'anaviy "qo'shma gap" atamasiga biroz tanqidiy yondashmoqda. Ya'ni, odatda biz qo'shma

⁴⁸ Turniyozov B. Hozirgi o'zbek tilida teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi. – Samarqand: "SamDCHTI" nashri, 2008. – 4b.



gapni bir nechta gaplarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi deb o‘rganamiz. Lekin bu qarash chuqurroq o‘ylab qaralsa, til tizimining ierarxik tuzilishiga unchalik mos kelmas ekan.

Chunki til birliklari odatda qat’iy tartibda joylashadi: fonema → morfema → so‘z → gap. Shu nuqtai nazardan qaraganda, “gap ichida yana bir gap bor” degan tushuncha biroz mantiqan chalkash tuyuladi. Bizningcha, muallif aynan shu jihatni muammo sifatida ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham “qo‘shma gap” o‘rniga “murakkab sintaktik qurilma” atamasini ishlatish ma’qulroq deb hisoblanadi. Chunki bu atama gaplar bir-birining ichida emas, balki matn darajasida o‘zaro bog‘lanib, yaxlit bir tuzilma hosil qilishini aniqroq ifodalaydi. Shaxsiy fikrimizcha, bu yondashuv ancha mantiqiy va zamonaviy ko‘rinadi. Chunki u tilni oddiygina qoidalar yig‘indisi emas, balki tizimli va pog‘onali tuzilma sifatida ko‘rishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu qarash bizni gaplarni faqat shakl jihatdan emas, balki ularning matndagi funksiyasi orqali ham tushunishga undaydi. Agar gapni gapning ichida deb qarajak, tilning pog‘onali qurilishi o‘z mohiyatini yo‘qotadi va sintaktik tahlil obyekti noaniq bo‘lib qoladi. Shuning uchun zamonaviy sintaksisda qo‘shma gapni gap va matn oralig‘idagi mikroprotsess sifatida o‘rganish muammoning mantiqiy yechimi hisoblanadi.

Qo‘shma gap tarkibidagi komponentlarning o‘zaro mustaqilligi yoki nomustaqilligi masalasi ham uzoq yillik ilmiy bahslarga sabab bo‘lib kelmoqda. Ko‘pgina tadqiqotchilar ushbu komponentlarni “sodda gap” deb atasalar-da, ular nutqiy voqelanish jarayonida o‘zining mutlaq tugalligini yo‘qotib, yagona kommunikativ butunlikka xizmat qiladi. “Qo‘shma gap tarkibiy qismlari bo‘lgan sodda gaplar o‘zlarining struktural va intonatsion xususiyatlariga ko‘ra mustaqil sodda gaplardan tubdan farqlanadi. Ular shunchaki mexanik birikuv emas, balki o‘zaro mantiqiy va grammatik shartlanganlik asosida yaxlitlanadi. Bunday tarkibiy qismlar fikran nisbiy, intonatsiya jihatidan esa butunlay nomustaqil birliklardir. Shuning uchun ham qo‘shma gaplarni sodda gaplar yig‘indisi deb emas, balki predikativ birliklar majmuasi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Mazkur birliklar faqat bir-biri bilan aloqaga kirishgan holdagina to‘laqonli xabar tashuvchi bo‘la oladi”.⁴⁹ Bizningcha, qo‘shma gap tarkibiy qismlarini oddiy sodda gaplar yig‘indisi sifatida tushunish yetarli emas. Chunki bunday gaplar o‘zining strukturaviy va intonatsion xususiyatlariga ko‘ra mustaqil sodda gaplardan sezilarli darajada farqlanadi. Ular shunchaki mexanik tarzda birikmaydi, aksincha, o‘zaro mantiqiy va grammatik bog‘liqlik asosida yaxlit bir tizimni hosil qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar fikran nisbiy bo‘lib, intonatsiya jihatidan esa mustaqilligini yo‘qotadi. Ya’ni ular alohida holda emas, balki umumiy sintaktik qurilma tarkibida to‘liq ma’no kasb etadi. Bizning fikrimizcha, aynan shu jihat qo‘shma gaplarni predikativ birliklar majmuasi sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, shuni ham ta’kidlash joizki, qo‘shma

⁴⁹ Sayfullayeva R.R. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning formal-funksional talqini. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1994. – 33b.





gap tarkibidagi har bir sodda gap o'zining individual maqsadi va ohangini umumiy sintaktik qurilmaning talablariga bo'ysundiradi. Natijada ular bir-biri bilan uzviy aloqaga kirishib, faqat shu yaxlitlik doirasidagina to'laqonli axborot tashuvchi birlik sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy matnlarda bu hodisa yanada yaqqol namoyon bo'ladi; masalan, O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" asaridagi "Lekin konkret matematik masalalarni yechishda diamatning roli qanday? Bilaman, masalaning mohiyatini yechishda u so'zsiz katta yordam beradi" jumllarida birinchi qism savol, ikkinchi qism esa unga mantiqiy ilova sifatida kelmoqda. Bu yerda "Bilaman" komponenti alohida gap bo'lib ko'rinsa-da, aslida u keyingi propozitsiyani ta'kidlovchi, uning ishonchlik darajasini oshiruvchi sintaktik unsur vazifasini bajarmoqda. Agar ushbu qurilmalarni alohida-alohida ajratsak, asardagi qahramonning fikrlash mantiqi va nutqiy dinamikasi buziladi. Demak, nazariy o'rganish jarayonida komponentlarning sintaktik "erkinligi" faqat nisbiy ekanligini hisobga olish zarur.

"Bog'langan qo'shma gaplar nafaqat turkiy tillarda, balki boshqa sistemali tillarda ham qo'shma gapning eng kam o'rganilgan qismi hisoblanadi. Buning asosiy boisi ularning tarkibiy qismlari go'yo mustaqil gapdek ko'rinishidadir, lekin ular yaxlit mazmuniy va ohang butunligini tashkil qiladi. Shuningdek, an'anaviy qarashlarda ularning sintaktik aloqalari mexanik xarakterda deb hisoblangan edi. Biroq tizimli tahlil shuni ko'rsatadiki, bog'lovchi vositalar faqat shakliy birlashtiruvchidir. Haqiqiy bog'lanish komponentlar orasidagi ichki semantik munosabat va ohang oqimi orqali voqelanadi".⁵⁰ Bizningcha, bog'langan qo'shma gaplarning yetarli darajada o'rganilmaganligi bejiz emas. Chunki ularning tarkibiy qismlari tashqi ko'rinishda mustaqil gaplarga o'xshab ketadi, ammo aslida ular o'zaro chambarchas bog'lanib, yagona mazmuniy va intonatsion butunlikni hosil qiladi. Aynan shu ikki tomonlama xususiyat ularni tahlil qilishni murakkablashtiradi. An'anaviy yondashuvlarda bu turdagi gaplar ko'proq mexanik birikma sifatida talqin qilinganini ko'ramiz. Biroq bizning fikrimizcha, bu yetarli emas. Chunki bog'lovchi vositalar faqat tashqi, shakliy vazifani bajaradi, xolos. Asl bog'lanish esa gap qismlari o'rtasidagi ichki semantik munosabatlar va umumiy ohang orqali yuzaga chiqadi. Shu jihatdan qaraganda, teng bog'langan gaplarni to'g'ri tushunish uchun lison va nutq o'rtasidagi farqni hisobga olish juda muhim, deb o'ylaymiz. Ya'ni, til tizimi doirasidagi imkoniyatlar bilan real nutqda ularning qanday namoyon bo'lishini birgalikda tahlil qilish kerak bo'ladi. Faqat shundagina bu sintaktik birliklarning haqiqiy mohiyatini chuqur anglash mumkin. Lisoniy sathda tayyor qoliplar (masalan, va, ammo, lekin bog'lovchili andozalar) mavjud bo'lsa-da, nutqda ular xilma-xil derivatsion ma'nolarga ega bo'ladi. Badiiy asarlarda, xususan, O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" qissasida uchraydigan "Boy bo'lsang, olib kelishing mumkin, do'kon shunday tagimizda" kabi qurilmalarda "boy bo'lsang" qismi shart ma'nosini anglatlsa-da, mantiqan biriktiruv

⁵⁰

Abdurahmonov G.A. Qo'shma gap sintaksisi. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1964. – 61b.



munosabatiga ham yaqin turadi.⁵¹ Bu yerda shakl (shart mayli) va mazmun (imkoniyatning sababi) o'rtasidagi nomutanosiblik nazariy sintaksisning hal etilmagan muammolaridan biri – sintaktik asimmetriyadan dalolat beradi. Shunga ko'ra, qo'shma gaplarni nazariy tadqiq etishda komponentlararo aloqaning ham lisoniy, ham pragmatik qirralarini uyg'un holda o'rganish talab etiladi.

Qo'shma gaplarni nazariy o'rganish borasidagi navbatdagi muammo – bu tildagi tejamkorlik tamoyili va murakkab fikrning sodda shakllarda ifodalanishidir. Tilshunoslikda “propozitsiya” tushunchasining kirib kelishi qo'shma gaplar tahlilini tubdan o'zgartirdi, chunki birgina sodda gap tarkibida bir necha propozitsiya (voqelik in'ikosi) yashiringan bo'lishi mumkin. “Tilda semantik-sintaktik nomuvofiqlikning yuzaga kelishi tildagi doimiy ikki tamoyilning – ortiqchalik va til vositalarini tejash tamoyillarining namoyon bo'lishidan iborat. Birinchi tamoyilga ko'ra bir sintaktik sodda gapda ifodalanishi lozim bo'lgan muayyan bir propozitsiya sintaktik qo'shma gapda ifodalanishi mumkin. Buning natijasida mazmunan sodda, ammo sintaktik qo'shma bo'lgan gaplar shakllanadi. Tildagi ortiqchalik tamoyilining qarama-qarshi qutbi til vositalarini tejash tamoyili bo'lib, sodda gaplardagi semantik-sintaktik nomuvofiqlik asosan shu prinsip asosida yuzaga keladi. Murakkab mazmunning sodda shaklda ifodalanishi til vositalarini tejashning yaqqol namunasiidir”.⁵² Mazkur ishni bajarish jarayonida shuni angladikki, til oddiy aloqa vositasi emas, balki juda murakkab va nozik tizim ekan. Ayniqsa, semantik va sintaktik jihatlar o'rtasidagi nomuvofiqlik masalasi dastlab biroz murakkab tuyulgan bo'lsa-da, uni tahlil qilgan sari bu hodisa tilning tabiiy va hatto zaruriy xususiyati ekanini tushunib yetdik. Bizning fikrimizcha, tilimizda ortiqchalik va tejash tamoyillarining bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishi nutqni yanada boy va moslashuvchan qiladi. Ba'zan fikrni aniqroq yetkazish uchun ortiqcha sintaktik vositalardan foydalanilsa, boshqa holatlarda esa qisqa va ixcham ifoda afzal bo'ladi. Bu esa til egasining nutqiy mahoratiga ham bog'liq. Shuningdek, teng bog'langan gaplarni o'rganish orqali ularning nafaqat grammatik, balki mazmuniy jihatdan ham muhim ekanini ko'rdim. Ular orqali fikrlar o'rtasidagi tenglik, ketma-ketlik yoki qarama-qarshilik aniq ifodalanadi. Bu esa matnning mantiqiyliigi va ravonligiga xizmat qiladi. Ushbu ilmiy xulosa qo'shma gaplar nazariyasini faqat shakliy emas, balki semantik darajada tahlil qilish zaruratini tug'diradi. Masalan, badiiy asarlarda “U ishlash uchun yaratilgan odam” deyilganda, bir vaqtning o'zida ham uning odamligi, ham maqsadi (ishlash) haqidagi ikki voqelik bitta sintaktik qurilmaga sig'dirilgan. Nazariy sintaksis oldida turgan jiddiy muammo esa, mana shunday “yashirin” qo'shma gaplarni an'anaviy qo'shma gaplardan qanday farqlash va ularning lisoniy maqomini belgilashdir. Binobarin, qo'shma gaplar tahlili faqat zohiriy (shakliy)

⁵¹ Umarbekov O'. Odam bo'lish qiyin. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 45 b.

⁵² Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: “O'qituvchi nashriyoti”, 1995. – 162 b.



alamatlar bilan cheklanib qolmasdan, chuqur (semantik) strukturalarga ham kirib borishi shart.

Ustpredikativlik – bu qo‘shma gap tarkibidagi xususiy predikativlik markazlarining o‘zaro aloqasi natijasida butun qurilmaga xos bo‘lgan uchinchi bir predikativ belgining shakllanishidir. Qo‘shma gap tarkibidagi har bir sodda gap o‘zining individual predikativlik markaziga ega bo‘lib, ular alohida holatda ham voqelikka munosabat bildira oladi. Biroq, bu qismlar teng bog‘langan qurilma ichida birlashganda, ularning predikativliklari o‘zaro sintezlashib, yangi mantiqiy mazmun kasb etadi. Manbalarda qayd etilishicha: “Ustpredikativlik deganda muayyan predikativlik belgilarining yig‘indisidan yangi predikativ belgining shakllanishini tushunamiz. Ayni paytda esa MSQning mustaqil predikativli tarkibiy qismlari munosabatidan uchinchi predikativ belgining, ya’ni MSQ umumiy sintaktik strukturasi predikativ belgisining vujudga kelishi nazarda tutiladi”. Bizning tushunishimizcha, *ustpredikativlik* deganda oddiygina alohida gaplarning predikativligi emas, balki ularning o‘zaro bog‘lanishi natijasida yangi, umumiy bir predikativ ma’no paydo bo‘lishi nazarda tutiladi. Ya’ni, qo‘shma gap tarkibidagi har bir sodda gap o‘z predikativ markaziga ega bo‘lsa-da, ular birlashganda yana bitta – umumiy, yuqori darajadagi predikativlik yuzaga keladi. Ayniqsa, murakkab sintaktik qurilmada (MSQ) bu holat yaqqol ko‘rinadi. Chunki uning tarkibidagi qismlar mustaqil bo‘lsa ham, ular o‘zaro munosabatga kirishib, butun gapga xos bo‘lgan yangi sintaktik yaxlitlikni hosil qiladi. Bizningcha, aynan shu jihat ustpredikativlikni oddiy predikativlikdan farqlaydi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, qo‘shma gaplarni nazariy o‘rganishdagi asosiy muammolar terminologik tizimning eskirganligi, lisoniy ierarxiya qoidalarining buzilishi va shakl bilan mazmun o‘rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish masalalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy tilshunoslik ushbu qurilmalarni murakkab sintaktik butunlik yoki matn elementi sifatida qayta talqin etish orqali mazkur ziddiyatlarni hal qilishga intilmoqda. Tadqiqot jarayonida faqatgina bog‘lovchi vositalarga emas, balki komponentlararo mantiqiy - semantik shartlanganlikka va nutqiy voqelanish qonuniyatlariga tayanish ilmiy xolislikni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turniyozov B. Hozirgi o‘zbek tilida teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi. – Samarqand: “SamDCHTI” nashri, 2008.
2. Sayfullayeva R.R. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning formal-funksional talqini. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1994.
3. Abdurahmonov G‘.A. Qo‘shma gap sintaksisi. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1964.
4. Umarbekov O‘. Odam bo‘lish qiyin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san’at” nashriyoti, 1983.





5. Mahmudov N, Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1995.